

MIGRATSIYANING URBANIZATSIYA JARAYONIGA TA'SIRI



A. Mamatqulov

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada "Migratsiya" tushunchasi, migratsiya to'g'risidagi dastlabki ilmiy ta'riflar, bugungi kunda migratsiya jarayonlarida amalga oshirilayotgan yurtimizdagi islohotlar va migratsiya jarayonining urbanizatsiyaga ta'siri masalalari berilgan.

Kalit so'zlar: demografiya, migratsiya, integrallashuv, transmilliy, tendensiya, urbanizatsiya, muhojir, madaniy, estetik, axloq, texnika va texnologiya.

Bugungi kunda globallashuv tufayli texnika va texnologiyaning ortib borishi, turli mamlakatlarda ishlab chiqarishning ortishi, ish o'rinlarning ayrim davlatlarda yetishmasligi tufayli aholi migratsiyasi jarayonlari tobora jadallashib, yangicha mohiyat kasb etmoqda. Shu bilan birgalikda aholi migratsiyasi jarayonlari bevosita demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, manaviy-marifiy va oilaviy munosabatlarga ta'sirini ko'rsatmoqda.

Migratsiya (lotincha migratio) –ko'chaman, joyni o'zgartiraman ma'nosiga ega bo'lib, joyni o'zgartirish, ko'chirish demakdir. Biroq, "joyni almashtirish" va "ko'chirish" tushunchalari o'xshash bo'lmasdan, turli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. "Migratsiya" tushunchasining o'zi tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otadi. "Migratsiya" to'g'risidagi dastlabki ilmiy ta'rifni Ye. Ravenshteynning tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Bu ilmiy tadqiqot ishlari olim tomonidan 1885-1889 yillarda amalga oshirilgan. Olim migratsiya jarayonini tadqiq qilish jarayonida migratsiyaning 11 ta qonunini shakllantirdi. Shuni ta'kidlash joizki, Y. Ravenshteyn "migratsiya" tushunchasi ta'rifini oddiy tushuntirib, uni "odamning o'z yashash joyini doimiy yoki vaqtinchalik o'zgartirishi" deb qaradi.

Uning fikricha, bu "uzluksiz jarayon" bo'lib, to'rtta asosiy omillar guruhining o'zaro ta'sirini taqozo etadi. Bular: a) migrantning avvalgi yashagan joyi (mamlakati)da ta'sir qiluvchi; b) migrantning ko'chish bosqichida ta'sir qiluvchi; v) migrantning ko'chib o'tgan joyi (mamlakati)da ta'sir qiluvchi; g) shaxsiy xarakterdagi omillar.

Shaxsiy xarakterdagi omillar deganda, eng avvalo, shaxsning afzalliklari tizimi, uning demografik xususiyatlari yig'indisi va boshqalar tushuniladi¹. Jahon davlatlarida migratsiya jarayonining ortishi immigrant va emmigrant mamlakatlar uchun iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va etnik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy migratsiya shakllari natijasida yuzaga kelayotgan muammolar bilan ishlashning yangicha usullari paydo bo'lmoqda. «Migratsiya global muammo bo'lib, global yondashuvlar va global yechimlarni talab qiladi. Migrantlarning xavfsizligi va qadr-qimmatini asrash va ularning oila a'zolarini huquqlarini himoya qilish muhim»².

Migrantlar sonining ortib borishi bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan olib borilayotgan siyosiy jarayonlar, ularga qo'llanilayotgan cheklovlar kundan-kunga ortib bormoqda.

Yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish, madaniyatlararo integrallashuv, transmilliy xususiyatlarni yuzaga kelishi, qadriyatlar to'qnashuvi, oilaviy munosabatlarga nisbatan ta'sir kuchayishi, oila institutini mustahkamlash, oilaviy va shaxs qadriyatlarini saqlab qolish uchun bir qancha mexanizmini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga urbanizatsiya jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Jahon mamlakatlarida urbanizatsiya serqirra jarayon sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga muhim ta'sir ko'rsatib, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida uzoq muddatni ko'zlovchi loyihalar hayotga joriy qilinmoqda. Urbanizatsiya jarayonlari murakkab va serqirra jaryondir. Ushbu jarayon turli mintaq va davrlarda turlicha kechishi ushbu muammoni tahlil qilishda ko'plab yo'nalish va yondashuvlarni vujudga keltirdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, urbanizatsiya va shahar hayotini o'rganilishini bir nechta guruhga ajratish mumkin.

¹ Ionsev V.A. MGU, 1999. S.16

² <https://www.un.org/ru/global-issues/migration>

Dastlabki guruhga qadimgi dunyo faylasuflari ilgari surgan fikrlarni keltirib o'tish mumkin. Aflotun o'zining "Qonunlar" asarida shahar hayotiga oid fikrlarini bildirgan. Arastu esa insonni shahar mavjudoti sifatida ta'riflab, shaharni bir biriga o'xshamaydigan, turli-tuman odamlar yig'indisi sifatida ta'riflagan. Qadimgi dunyo tarixchilaridan Fukidit qadimgi shaharlarning joylashuvi haqida o'z fikrlarini bildirib o'tgan. "Qadimgi shaharlar suv havzalaridan ancha ichkarida bunyod etilgan bo'lib, buni asosiy sababi turli talon tarojlardan saqlanish uchun amalga oshirilgan"¹. Qadimgi davrlarda shaharlar ko'pincha qaroqchi kemalar tomonidan hujumlarga uchrab turgan. O'rta asrlarda esa Rimning tanazzulidan ta'sirlangan xristian ilohiyotchisi A.Avgustin o'zining "Ilohiy shahar" asarida ikki ko'rinishdagi shahar — Ilohiy shahar va Gunohlar shahri o'rtasidagi kurashni ta'riflab, inson yashayotgan shahar tanazzulga yuz tutib, barham topishi, ilohiy shahar esa abadiy mavjud bo'lishi haqida aytib o'tgan. A.Avgustin o'z qarashlarida shahar taraqqiyotini inson ma'naviy darajasi bilan bog'lagan.

O'rta asr Sharq falsafasi vakillaridan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida shahar taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida inson ma'naviyati masalalarini ko'rsatib o'tgan. "Insoniy jamiyatning turlari haqida va fozil jamiyat haqida, fozil shahar nima degani, u qanday idora qilinadi, uning bo'laklarining tartibi qanday"² kabi savollarga javob berib, ideal jamiyat haqida ta'kidlagan. Farobiy fikriga ko'ra, har qanday shaharning, jamiyatning taraqqiyoti va odil boshqaruv va fozil jamiyat uyg'unligiga asoslanadi. Bundan tashqari Forobiy fozil shaharning ziddi bo'lgan shaharlar haqida ham to'xtalib o'tgan. Shundan kelib chiqqan holda migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari bevosita bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan biri bo'lib, unda kishilarning oddiy mexanik ko'chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi aholini joylashishi, yerni xo'jalik jihatdan o'zlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, irq, tillar va xalqlarning paydo bo'lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog'liq. Qishloq aholisi hisobiga shaharlarda yashovchi aholining to'xtovsiz o'sib borish tendensiyasi ham mavjud. Qishloqlarda yashash sharoitining shaharlarga nisbatan ma'lum darajada noqulayligi, uning ayniqsa yoshlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlaridan to'la qondira olmasligi bu tendensiyaga sabab bo'ladi. Urbanizatsiya jarayonlarining faollashuvi natijasida shahar aholisi soni ortib boradi. Bu jarayon aholining tabiiy ko'payishi va migratsiya hisobiga sodir bo'ladi. Aholini uy-joy bilan ta'minlash, infrastruktura obyektlarini joylashtirish muammosi paydo bo'ladi. Shaharlar o'zining geografik joylashuvi, iqlimi, aholining tarkibiga ko'ra o'ziga xos jihatlarga egaligidan kelib chiqib, yangi me'moriy yechimlar ishlab chiqiladi. Har bir shahar o'ziga xos arxitekturaga ega. Shaharlar rivojlanishidagi zamonaviy me'moriy yechimlardan biri yashil zonalar, landshaft dizaynlari tashkil qilish hisoblanadi.

Urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirish to'g'risidagi Prezident farmonida aholining kam va o'rta daromadli qismlarining ham manfaatlari hisobga olinishi taqsiqqa loyiq.

Migratsiya jarayonlarini ma'muriy tartibga solish tizimni takomillashtirish orqali aholini qishloqdan shaharga erkin harakatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi urbanizatsiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yirik shaharlarda aholi farovonligini ta'minlash, iqtisodiy va sanoat resurslaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga shaharlar aholisini bandligini ta'minlashga erishish mumkin. Bu sohada olib borilayotgan ishlarga qaramasdan, hozirgi kunda ham ko'plab muammolar ko'zga tashlanmoqda.

Shahar aholisining ko'payishi, shaharlarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy sohalar sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi obyektlariga qo'shimcha yuklamalar keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, tasdiqlangan shahar bosh rejalari talablariga rioya qilinmaslik yoki bunday rejalarning umuman mavjud emasligi, yirik korxonalarni barpo etishda uning ijtimoiy va ekologik oqibatlarining e'tiborga olinmasligi sanoat rivojlanishining tizimli muammolaridan sanaladi.

¹ Фукидид. История. Историки античности. М. "Правда". Г. 1989, Стр. 208 .
<https://simposium.ru/ru/book/export/html/14465>

² Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Иккинчи нашр. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашрети. Тошкент.: 2012. Б. 7.

Shaharlar taraqqiyotida migratsiya jarayonlarining ahamiyati katta. Shuni inobatga olgan holda, mamlakatimizda migratsiya jarayonlarini tartibga solishning yangi mexanizmlari ishlab chiqildi. Aholining erkin harakatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalarning tiklanishi ham ushbu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shaharlardagi iqtisodiy va sanoat resurslaridan foydalanishning takomillashuvi, yangi ishchi o'rinlarining yaratilishi, xorijiy kompaniyalarning milliy bozorlarga kirib kelishi, savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi aholi bandligini ta'minlash ishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xalq farovonligining oshib borishiga zamin yaratdi.

Bundan tashqari hozirgi kunda dunyoning ko'plab yirik shaharlari atrofida xarobazorlar paydo bo'layotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sabablaridan biri shaharga ko'chib kelayotgan migrant aholining katta qismi shahar hayotiga qo'shilib keta olmayotganligi natijasidir.

Shunday jarayonlarni inobatga olgan holda mamlakatimizda davlatimiz va davlat raxbari tomonidan so'ngi yillarda mehnat migranti sifatida xorijiy mamlakatlarda o'z faoliyatini olib borayotgan fuqarolarning oila-a'zolariga iqtisodiy, ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni ish bilan ta'minlash, ta'lim olishi, tibbiy xizmatlardan foydalanishi bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqib ular uchun amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda. Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlaridagi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida migratsiya jarayonlarining axloqiy oqibatlarini, migrantlarning insoniy huquqlari, immigrant ya'ni migrantlarni qabul qiluvchi davlat bilan migrantlar o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy asoslarini o'rganishga doir tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Migratsiya jarayonining emigrant ya'ni migrantlarni yetkazib beruvchi mamlakatlar, migrantlar jamoalari hamda global axloqiy muhit taraqqiyotiga ta'siri, migratsiyaning global, mintaqaviy va milliy xususiyatlari, davlatlarning migrasion siyosatining axloqiy mezonlari, mehnat migrantlariga nisbatan sodir etilayotgan axloqqa zid munosabatlar ortib bormoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda migratsiyaning jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy-axloqiy muhit barqarorligiga ta'sirini tadqiq etish, undan resurs sifatida oqilona foydalanish hamda uning salbiy oqibatlarining oldini olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimizning tashqi migrasion siyosatida muhojir sifatida chet elda yurgan yurtdoshlarimizning har qanday vaziyatda ham O'zbekiston Respublikasining fuqarosi ekanligini hisobga olgan holda, migrantlarga har tomonlama ko'mak berish, boshqa davlatlardagi o'zbek diasporalari bilan samarali hamkorlik qilish, xorijdagi vatandoshlarimizning madaniy, estetik, axloqiy ehtiyojlarini qondirish kabi vazifalarga davlatning fuqarolar oldidagi axloqiy majburiyati sifatida yondashilmoqda. Mamlakatimizning migratsiyaga oid siyosatida o'ziga xos strategiya ishlab chiqilgan bo'lib, «bu borada taqdim etilayotgan strategiya asosida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, ular qayerda ekanliklaridan qat'iy nazar, ishonchli himoyasini ta'minlash masalasi olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. Ikkinchi nashr. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti. Toshkent.: 2012. B. 7.
2. Xolmirzaev N.N. Urbanizatsiya muammolarini bartaraf etish yuzasidan hayotiy takliflar // Экономика и социум. 2024. №2-1.
3. Yusupov X.B. O'zbekiston respublikasida urbanizatsiyalashgan hududlarini guruhlashtirish masalalari.
4. Alimov S.K. Migratsiya jarayoni zamonaviy tendensiyalarining falsafiy tahlili.